

NIKOH MUNOSABATLARIDA MILLIYLIK VA QONUN NORMALARINING AMAL QILISHI

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna

*Namangan davlat universiteti Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasi katta
o'qituvchisi*

Axmatov Akbarjon Ilxom o'g'li

*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi YU-
CU-23 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nikoh, oila qurish alloh taoloning insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo'lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi. nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Nikoh, inson taraqqiyoti, jamiyat taraqqiyoti, nasl-nasab, oila, muhabbat, an'anaviy oilaviy, qadriyatlar.*

Аннотация: В данной статье брак и построение семьи являются одними из священных законов Всевышнего Аллаха, введенных среди человечества, и служат благотворным целям человечества, таким как преемственность рода, родство между людьми, совершенство привязанности. Представлена информация о применении гражданства и правовых норм в брачных отношениях.

Ключевые слова: Брак, человеческое развитие, развитие общества, генеалогия, семья, любовь, традиционная семья, ценности.

Nikoh - ikki jins vakillarining o'zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo'lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Nikoh, oila qurish Alloh taoloning insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo'lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi. Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o'taydi, ya'ni oilada odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 13-moddasiga e'tibor bering: O'zbekiston Respublikasida demokratik umuminsoniy prinsipilarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadir-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Biz, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilamiz, lekin turmush qurishda o'ziga xos xalq hisoblanamiz. Bu nikoh va oila munosabatlarida ayniqsa ko'zga tashlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, Yevropa namunasiga tayanib ishlab chiqilgan oila to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida butkul

boshqa davrda, umuman boshqa siyosiy va iqtisodiy sharoitda yuzaga kelgan an’analarga amal qilishda davom etmoqdamiz. Sodda qilib aytganda, ajdodlarimizdan meros qolgan oila masalalari borasidagi qarashlarimiz qonunda tavsiflangan tizimidan biroz farq qiladi. O’tgan asr boshida, Abdulla Qodiriy oila va nikoh munosabatlariga turlicha fikrlar bildirgan. Ko‘p xotinlilik, majburiy va erta nikohlash nazarda tutilgan. Huquqiy choralar bilan ushbu salbiy masala tartibga solingan. Bu qonun hujjatlari hozir ham nazarda tutiladi: Jinoyat kodeksida 126-modda (ko‘p xotinli bo‘lish), 136 modda (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki erga tegishga to‘sinqinlik qilish), 128, 129-moddalar (16 yoshga to’lmagan shaxs bilan jinsiy aloq qilish va unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish). Mamuriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda-47-3 modda (nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish). Bundan tashqari, faylasuf olimlardan biri Vissarion Grigoryevich Belinskiy oila haqida shunday fikrlar bildirgan: “Nikoh muhabbatning qaror topishidir. Faqat pishib yetilgan yurakkina chinakamiga seva oladi va shundagina muhabbat nikoh misolida o‘ziga hadya etilgan eng oliv mukofotni ko‘radi va har qanday shuhrat qarshisida ham xiralanmaydi, balki oftob nuridan o‘zining xushbo‘y gullarini barq urib ochiltiradi”. Faylasufning fikrida ko‘rinib turibdiki, oila qurish ham hammaning qo‘lidan kelmaydi. Shuning uchun oila mustahkam hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 76-moddasiga e‘tibor bering: Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat tomonida muhofaza qilinadi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda mahr tushunchasini qonunchilikka kiritish bo‘yicha takliflar bildirilmoqda, jumladan, “Misrda erkaklar o‘zi va oilasi yashashi uchun aniq uy-joy topmaguncha uylanmasliklari, Eronda ham mahr masalasida juda katta cheklov qo‘yliganligi, diniy e‘tiqodimiz nuqtai nazaridan 90 foizdan ortiq aholi musulmon bo‘la turib nima uchun mahr bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni qo‘ya olmayotganligimiz, ajrashmoqchi bo‘lgan erkak xotiniga uy-joyni tashlab ketish imkon bo‘lsagina uylanish kerakligi, bo‘lmasa uylanish kerak emasligi”, kabi takliflar bildirilgan. Islom dini rasmiy hisoblangan davlatlarda ya‘ni Saudiya Arabiston, Quvayt, Qatar kabi davlatlar nikoh tuzishda arning arizasi shariat qonunshunosi tomonidan tasdiqlanib, fuqarolik holatini qayt etish idoralarida tuziladi. Bu idorada hokimiyat vakili ishtirokida nikoh shartnomasi tuziladi. Nikoh bitimini er, xotin tomonidan esa – uning qon-qarindoshlaridan biri imzolaydi. Nikoh shartnomasini imzolash vaqtida er yoki uning otasi to‘liq yoki qisman “mahr” to‘laydi. “Mahr” – bu nikoh to‘lovi bo‘lib, u xotin uchun to‘lov bo‘lmay, balki uning moddiy manfaatlarini himoya qilishga (ayniqsa, nikoh to‘xtatilganda) qaratilgan haq-huquqidir. Shariatda nikoh o‘qilayotgan vaqtda nikohlanuvchi er nikohlanuvchi xotinga mahr berishi shart, deyilgan. A. Fitratning aytishicha: “Mahr – kuyovning kelinga beradigan do‘stona hadiyasi” [Sharq tongi, 2019-yil 213-b]. Mahr shaxsan ayolning o‘ziga berilishi lozim bo‘lgan ma’lum mablag‘dir. Mahrning miqdori ayol yashab turgan joy, u yerdagi urfatlar, jamiyatning iqtisodiy ahvoliga qarab belgilanadi. Mahr kelinning haqqi bo‘lib, undan zo‘rlab olishga kuyovning ham, otasining ham, haqlari yo‘q. Ammo kelin o‘z

ixtiyori bilan otasiga yoki kuyovga qisman yoki hammasini berishi mumkin. Alloh taolo mahrni xotin-qizlarning haqi sifatida, taqdirlab joriy qilgan.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquliligiga asoslanadi. Shuningdek, moddiy majburiyatlar qonunda mustahkamlanib, erkaklar oldida majburiyatlar, ayollar oldida ma'suliyatni mustahkamlaydi. Davlat oilaning to'laqonli rivovjlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib beradi. Jamiyat va davlatning oila xususidagi g'amxo'rligi avvalombor, davlat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo'lmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir. Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqyelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy qismi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning bahtiyorligi va farovonligi rivojlanish natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston Respublikasining oila to'g'risidagi qonun hujjalari binoan oilaviy munosabatlarda er va xotin bab-baravar shaxsiy va mulkiy huquqlarga egadir. Teng huquqdan foydalanish bilan ular zimmasida majburiyatlar bab-baravar bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 29-moddasida nikoh shartnomasiga quyidagi tarif berilgan: nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgannikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tastiqlanishi lozim. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 58-moddasidagi xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar. Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi. Shuningdek, davlat xotin-qizlar va erkaklarni bevosita yoki bilvosita davlat ishlarini boshqarishda, byndan tashqari jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarini boshqarishda teng imkoniyatni yaratib beradi. Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasi o'zgarishiga olib kelmaydi. Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar. Er va xotinning har biri mashg'ulot turi, kasb va yashash joyini tanlashda erkindir. Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra: Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining

daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli. Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan chekhanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxud kelmasligiga bog‘liq qilib qo‘yilishi mumkin. Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta’midot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o‘ta noqulay holatga solib qo‘yuvchi yoxud oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi. Nikoh shartnomasi odatda muddatsiz bo‘ladi. Ma‘lum vaqt o‘tgach yoki istalgan vaqtida er-xotin kelishib, unga o‘zgartirish kiritishi, bekor qilishi mumkin. Nikoh shartnomasini buzishga bir tomonlama ruxsat berilmaydi. Ba‘zida, tomonlarning birining ma‘lum sababiga ko‘ra shartnomada belgilanga talablarni bajarolmasa, uni bekor qilish yoki o‘zgartirishni taklif qilish huquqiga ega. Kelishuvdagagi xulosaga ko‘ra masala notarial tartibda, aks holda, sud orqali bekor qilinadi. Demak ushbu moddaga asosan, nikoh shartnomasining haqiqiy emas deb topilishiga uning qonun talablariga rioya qilmay tuzilgani asos bo‘ladi. Haqiqiy emas deb topilganda nikoh shartnomasi hech qanday huquqiy oqibat tug‘dirmaydi va taraflar mulkiy munosabatda dastlabki holatga qaytadilar. Xususan, nikoh shartnomasi oilaning mustahkam tayanchi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 7-fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Prezident xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyati qoniqarsiz ekanini, ayollar jinoyatchiligining oldini olishga yetarlicha e’tibor berilmaganini ta’kidladi. "Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz", — deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, davlatimiz tomonidan oiladagi muhitni so‘g‘lomlashtirish, oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikini yo‘q qilish borasida chora tadbirlar olib borilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Gender tengligi ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

FOYDANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruza. 2018 y. 7-fevral
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T., O'zbekiston" 2023. 120.b
3. O'zbekiston Respublikasi Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T., O'zbekiston" 2023 y. 220.b
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. T., O'zbekiston" 2023 y. 246.b
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН–III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMY JURNALLI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207
<http://www.bestpublication.org/>
7. Сайдисаков Саидахрор Сайдакрамович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL.
<http://www.bestpublication.org/>. 198-202
8. Chuboyeva Ozodaxon "New Uzbekistan: Administrative Management Reform" Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367.
<https://zienjournals.com>
9. Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 2. – С. 194-198.